

«DEVONU LUG‘OTIT TURK» ASARINING O‘RGANILISHIGA DOIR MA‘LUMOTLAR

Botirova O‘g‘iloy Yadigarovna. Ugiloybotirova9@gmail.com

ANNOTATSIYA


Mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarining o‘rganilishiga oid manbalar va ularda asar haqida ilgari surilgan fikr-mulohazalar tahlilga tortilgan. O‘zbekistonda «Devonu lug‘otit turk» bilan birinchi bo‘lib qiziqqan Abdurauf Fitrat bo‘ldi. U XX asrning 20-yillari o‘rtalarida «Devon»dagi barcha she‘riy parchalarni yig‘ib, o‘zbek tiliga o‘girdi. Fitrat «Devon»dagi she‘riy parchalarni ilk bor u yoki bu mavzu doirasida guruhlashtirib, ularning har biriga alohida sarlavha berib, 1927-yilda chop etilgan «Eski turk adabiyotining namunalari» kitobiga kiritdi.

“Devonu lug‘otit turk” asari qomusiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega filologik manba hisoblanadi. Unda keltirilgan har bir misol tarixiy, ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: turkologiya, «Devonu lug‘otit turk», maqollar, hikmatli so‘zlar, qo‘shiqlar, iboralar, Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtado.

Turkologiyaning to‘ng‘ich asari¹ deya ta‘riflangan Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari turkiy qavmlarning toponimikasi, etnografiyasi, onomastikasi, lingvistikasi, etimologiyasi va yana bir qancha sohalarini jamlagan qomusiy asardir. Bunda olim turkiy tildagi so‘zlar ma‘nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa xalq tilida mavjud namunalariga murojaat etadi. Ma‘lumki, Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asari faqat lug‘at, ya‘ni so‘zlarining arabcha izohli tarjimasidan iborat bo‘lib qolmasdan, balki u arablargacha bo‘lgan davrdagi adabiyot namunalarini o‘zida jamlab kelgan ajoyib badiiy asar ham bo‘lib hisoblanadi. Chunki unda xalq og‘zaki ijodiga oid turli maqollar, hikmatli so‘zlar, qo‘shiqlar, iboralar, dostonlardan parchalar ko‘plab keltirilgan. Sakkiz mingga yaqin turkcha so‘zlarga arabcha izohlar berilgan. Muallifning: *«Men bu kitobni maxsusaliqbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘ (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo‘lgan she‘r turi) vanasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishdamisol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib*

¹Турсунов У. Туркологиянинг тўнғич асари.– «Ўзбек тили ва адабиёти» 1961. - №3. –Б. 67-69.



kelgan she'rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim»², – deyishi bejiz emas. Ko'pgina turkiy qabila va urug'larning tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va boshqa tomonlari haqida ma'lumotlar berilgan va ushbu jihatdan o'z davrining yirik asari darajasiga ko'tarilgan mazkur kitobjahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunasi sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki M.Koshg'ariy bu asarni yozishda juda katta material to'plagan hamda Markaziy Osiyo va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug' va qabilalar tillarini qiyoslab o'rgangan. Uning uzoq vaqtlar yurtma-yurt kezib, to'plagan materiallari o'sha davr tilini har tomonlama yoritishga imkoniyat yaratdi va bu usul bilan barcha til faktlari asosida puxta ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi³.

«Devonu lug'otit turk» asari 1072-yilda yozila boshlangan. Ammo unga kirgan materiallar 15-20 yillar davomida to'plangan. Mahmud Koshg'ariyning o'zi: *«Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa men tilda ularning yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jangishlarida usta nayzadorlardan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'iz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim»⁴, – deb yozadi. Shu mulohazalarga tayanadigan bo'lsak, bundan 950 yil ilgari, muallif ta'biri bilan aytganda, hijriy 464-yil jumodulavval boshlarida boshlanib va to'rt karra yozilgan (ko'chirilgan) dan va tuzatilgandan so'ng 466-yil jumoduloxirning 12-kuni (1074-yil) bitirilgan. Bu «Devon» barcha turkiylar uchun mushtarak ilmiy-badiiy qimmatga egaligi, shu tufayli jahon turkologlari diqqatiga sazovor bo'lib kelayotganligini ta'kidlash lozim. Kitobga «Devonu lug'otit turk» («Turkiy tillar lug'atlari») deb nom berilgan. U Abulqosim Abdulloh binni Muhammadal-Muqtadoga bag'ishlangan. Mahmud Koshg'ariy turk tilining nozik bilimdoni va tolmas targ'ibotchisidir. U «arab tili bilan ikki uloqchi otsingari teng poyga qilib,*

² Кошғарий М. Девону луғотиттурк. Учтомлик. Итом, 1960, 44-бет.

³ Qodirova B. Analysis of verb terms in Uzbek and Kazakh language schools' manuals // Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems. – 2020. – T. 12. – №. 6. – С. 1125.

⁴ Кошғарий М. Девонулуғотиттурк. Учтомлик. Итом, 1960, 44-бет.



*o‘zib borayotgan turk tilini»*ko‘klarga ko‘taradi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini mahorat bilan ko‘rsatib beradi⁵.

XI asrda yozilgan «Devon»ning lingvistik merosi hozirgi kunda ham ahamiyatli. Qolaversa, Mahmud Koshg‘ariyning bu asari lug‘at tuzish an‘anasining debochasi hisoblanadi. Koshg‘ariy davridan keyin yaratilgan barcha lug‘atlar uchun «Devonu lug‘otit turk» asosiy poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili tarixidagi eng qadimgi lug‘atlar XI asrdan XIII asrga qadar yaratilgan bo‘lib, bu davrga yana Mahmud Zamaxshariyning «Muqaddamatul-adab», mualliflari noma‘lum asarlardan «Tarjumon turki va ajami va mo‘g‘uli», «Kitobi at-tuhfat uz-zakiya fi-l-lug‘atit turkiya» kabi lug‘atlarni kiritishimiz mumkin.

XV asr va XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan davrdagi lug‘atchiligini asosan Navoiy asarlariga tuzilgan lug‘atlar tashkil etadi: To‘le‘ Imoniy Hiraviyning «Badoe‘ ul-lug‘at» (1405), «Abushqa» (XVI asr), Muhammad Mahdiyxonning eski o‘zbekcha-forscha «Sanglox» (1748), Ya‘qub Chingiyning «Kelurnoma» va Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lug‘ati chig‘atoyi va turki usmoniy», Muhammad Rizo Xoksoning «Muntaxabu-l-lug‘ot» va «Zubd ul-lug‘ot», Ishoqxon Ibratning «Lug‘ati sita al-sina» kabi asarlarini misol qilib keltirish mumkin. Bu lug‘atlar o‘z davrining lug‘atshunoslik an‘analarida yaratilgan bo‘lsa-da, unda ayni tilning (o‘zbek) turli davrlardagi holati va undagi so‘zlarning ma‘no-mazmunini hisobga olib tuzilgan yoki muayyan badiiy matnda qo‘llanilgan shakllarini kuzatish mumkin⁶.

«Devon» dagi har bir so‘z izohi, shu munosabat bilan keltirilgan afsona, rivoyat, maqol va she‘riy parchalardagi mazmunga, shaklga, ishoralarga daqiqnazarona qarab, xalqimiz o‘tmishiga daxldor tarixiy asarlar mag‘zini chaqish va shu asosda yangi-yangi tadqiqotlarni bajarish davr taqozosiga aylanmoqda.

Jahonda «Devonu lug‘otit turk»ning yagona nusxasi mavjud bo‘lib, u Turkiyaning Istanbul shahridagi kutubxonada saqlanadi. Muallifning guvohlik berishicha «Devon» kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy tomonidan Mahmud Koshg‘ariy dastxatidan hijriy 1265-66-yillarda ko‘chirilgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Mahmud Koshg‘ariyning «Javohirun – nahv fi lug‘otit turk»

⁵To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. 11-sinf adabiyoti I qism. «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2018.

⁶Boynazarov Z. Tarixiy-qomusiy manbalarda ifodalangan olamning lisoniy manzarasi va uning madaniyat tarixini o‘rganishdagi o‘rni (Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari misolida). ORCID: 0000-0001-X964-145X



(«Turkiy tillarning nahv (sintaksis) durdonalari (aniqrog‘i, qoidalari)») deb nomlanuvchi yana bir asari bo‘lgan, ammo bu asari bizgacha yetib kelmagan.

«Devonu lug‘otit turk» asarining yagona qo‘lyozmasini 1915-1917-yillarda Kilisli Ahmad Rif‘at Istanbuldagi Omira matbaasida uch jildda chop etgan. Asarning aynan shu nashri uning nemis, turk, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq va fors tillarga tarjimalari uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan⁷. Yurtimizda bu nodir durdona, topilmas asarning uch tomligi nashr etilgan⁸ bo‘lib, bugungi kunda “Devon”ning o‘rganilishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, shu kungacha «Devon»ning poetikasi yuzasidan yurtimizda va xorijda quyidagi olimlar izlanish olib borganlar: H.Dadaboyev⁹, I.V.Stebleva¹⁰, A.Xayitmetov¹¹, A.I.Ellove¹². Jumladan, prof.U.T.Tursunov «Turkologiyaning to‘ng‘ich asari», E.Fozilov «Mahmud Qoshg‘ariy va uning «Devon”i», F.Abdullayev «Devonu lug‘otit turk» asarida o‘g‘uz komponentining o‘rni masalasi», Iqbol Mirzo «Devonu lug‘otit turk» asarining xalqaro miqyosda o‘rganilishi», H.Berdiyev «Devonu lug‘otit turk» asaridagi she‘riy parchalarda solesizm hodisasi» hamda H.Berdiyev va D.Rajabovlarning «Devoni lug‘otit turk»dagi she‘riy parchalarda qofiya» monografiyasi ham shu silsilani to‘ldiruvchi tadqiqotdir.

O‘zbekistonda «Devonu lug‘otit turk» bilan birinchi bo‘lib qiziqqan Abdurauf Fitrat bo‘ldi. U XX asrning 20-yillari o‘rtalarida «Devon»dagi barcha she‘riy parchalarni yig‘ib, o‘zbek tiliga o‘girdi. Fitrat «Devon»dagi she‘riy parchalarni ilk bor u yoki bu mavzu doirasida guruhlashtirib, ularning har biriga alohida sarlavha berib, 1927-yilda chop etilgan «Eski turk adabiyotining namunalari» kitobiga kiritdi. Jumladan, «Alp Er To‘ngaga bag‘ishlangan marsiya» 10 ta to‘rtlik, «Qish va Yoz» munozarasi 23 ta to‘rtlik, «O‘q va Yoy» munozarasi 5 ta to‘rtlik, «Urush maydoni haqida» 17 ta to‘rtlik, «Yoz o‘yinlari» vasfi 6 ta to‘rtlik, «Ovdan urushga» 12 ta to‘rtlik va «Tangut beginning urushi» 8 ta to‘rtlikdan iborat holda tartiblangan.¹³

⁷Рустамий С. «Девону луғатит турк» даги лингвистик атамалар. – Т. 2006. – Б. 20.

⁸Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девони луғотит турк), таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. 3 томлик. – Тошкент, т. I, 1960; т. II, 1961; т. III, 1963.

⁹Дадабоев Х. «Девону луғатит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида//Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Т. 2008, - Б. 3-9.

¹⁰Стеблева И.В. Развитие тюркских поэтических форм в XI веке. – М., 1971.

¹¹Хайитметов А. О древней поэзии тюрков (по материалам «Девону луғатит турк» Махмуда Кашгари) // Советская тюркология, - Баку, 1972, № 1. С. 123-128.

¹²Ellove A. İ. Dīvanü Lugatit – Türk teki halk şiirleri // Türkün, 1936, sayı 6, 54-59; 7, s. 65-72; sayı 8, s.65-72; 1937, sayı 8, 1-8; sayı 10, s. 32-40; sayı 11, s. 29-38.

¹³Қаранг: Бердиев Х, ва Ражабов Д. «Девонилуғотиттурк»даги шеърлий парчаларда қофия». Монография. – Тошкент, 2004.



O‘zbek adabiyotshunosi A.Abdurahmonov esa bundan farqli o‘laroq, «Devon»dagi barcha she‘riy parchalarni yaxlit bir mavzu doirasida tartib berib, uni «Alp Er To‘nga yoki Afrosiyob jangnomasi» tarzida nomlab, qadimda yaratilgan turkiy doston tarzida xarakterladi¹⁴.

Mahmud Koshg‘ariyning qomusiy asari “Devonu lug‘otit turk”dagi materiallarning ko‘lami keng. Ularda she‘riy parchalarning janriy xususiyatlari, badiiyati, ayrim adabiyotshunoslik terminlari tahlili kabi masalalar yoritib berilgan. Biroq asardagi she‘riy parchalar muayyan so‘z izohi uchun keltirilgan bo‘lib, bu jarayon lingvistik va poetik jihatdan yondashishni taqozo etadi. Shunga ko‘ra, she‘riy materiallarning o‘rganilish, yo‘nalish va tamoyillarini aniqlashtirgan holda, ularning lingvistik xususiyatlarini ham tahlil etish muhim hisoblanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asari qomusiy manba sifatida muhim ahamiyatga ega filologik manba hisoblanadi. Unda keltirilgan har bir misol tarixiy, ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

«Devonu lug‘otit turk» muqaddima, sakkiz bo‘lim va xulosadan iborat bo‘lib, muqaddimada «Devon»ning yaratilish sabablari, buning uchun ko‘p yillar tayyorgarlik ko‘rib ma‘lumot yig‘ganligi, «Devon» tarkibi va unda turkcha so‘zlarning berilish tartibi haqida ma‘lumot beriladi.«Devonu lug‘otit turk»ning asosini uning sakkiz bo‘limi tashkil etadi. Undagi har bir bo‘limda ot-ism va fe‘l so‘z turkumlariga mansub turkiy so‘z va iboralar izohi berib borilgan. Butun «Devon»da bu xilda izohlangan so‘z va iboralar miqdori 7500 tadan oshiq. M.Imomnazarov e‘tiroficha: «Devonu lug‘otit turk»ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo‘lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o‘rtacha adabiy tildagi 10-12 so‘zga, shevaga oid bir so‘zga teng keladi. Ya‘ni umumturkiy adabiy tilga ayri-ayri ahamiyat ajratilgan. Bu holat o‘sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til ancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo‘lganini tasdiqlovchi qat‘iy dalildir. Lug‘atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodi, dala, yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi geografik atamalar, turli qabila, urug‘, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Unda izohlangan grammatik ko‘rsatkichlar, morfemalar hisobi ham mingga yaqin¹⁵. Bugina emas, u shu turkiy so‘zlarning tuzilishi, qo‘llanishi, turkiy qabilalar

¹⁴Қаранг: Ҳ. Бердиев ва Д. Ражабовларнинг «Девонилуготиттурк»даги шеърӣ парчаларда қофия». Монография. – Тошкент, 2004.

¹⁵ «Буюксиймолар - алломалар» 1-китоб. – Т., 1995. – Б.68.

va boshqa masalalar to‘g‘risida ham qimmatli dalillarni,shu jumladan, qadimiy afsona va rivoyatlarni, 300 ga yaqini maqol va hikmatli so‘zlarni, 750 satr atrofida 210 she‘riy parchalar (164 tasi to‘rtlik, 44 tasi bayt (ikkilik) va 2 tasi uchlik shaklida)ni¹⁶keltiradi.

Bundan tashqari ularning turkiy xalqlar she‘rshunosligidagi yana bir qimmat – vazn xususiyatlaribilan belgilanadi. Prof.M.Imomnazarov e‘tiroficha, «Devon»dagi «bayt»lar aslida islommadaniyatiga xos she‘riyat namunalari sanaluvchi masnaviy, qasida, g‘azal va qit‘a parchalarisanalishi mumkin. Zero, ularning aksariyati aruzning rajaz va ayrimlari ramal, munsarix,hazaj, basit va mutaqorib kabi bahrlarida bitilgan bo‘lib, asosan, arab istilosidan keyingi (VIII-IXasrlar) voqeligi bag‘rida yaratilgan, deyish mumkin.«Devon»dagi to‘rtliklar esa asosan, barmoq vaznida bo‘lib, ma‘lum namunalari, jumladan,Alp Er To‘ngani sharaflovchi to‘rtliklarning qay biri u hoqonlik qilgan miloddan avvalgi VIIasrda, boshqa biri undan keyinroq yaratilgan turkiy xalq poeziyasining keng tarqalgan qadimiy shakli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Xuddi shu mulohaza asosida «Devon»dagi to‘rtliklar turkiy xalqlarning miloddan avvalgi VII asrdan miloddagi XI asrgacha – jami o‘n sakkiz asrlikmuddatda yaratilgan va o‘sha davr ruhini aks ettiradi, deyishga asos bor. Zero, forslarAfrosiyob degan Alp Er To‘nganing, akademik V.Bartoldva V.Grigoryevlar tomonidanaytilganidek, afsonaviy nom emas, balki real tarixiy shaxs ekanligi (prof.X.Doniyorove‘tirof etganidek), asl nomi Maaday bo‘lib, miloddan avvalgi VII asrda yashab, hukmronlik qilganligi, bahodirligi,botirligi, dovyurakligi, mardligi, jasorati uchun shunday atalgani, «Turkiy qabilalarnibirlashtirib skiflar nomi bilan shuhrat qozongan buyuk davlatni oyoqqa turg‘izgan»ligi (A.Abdurahmonov), shu yo‘lda jonini tikib, elati, xalqi hurmatiga sazovor bo‘lganligi, o‘g‘illari Barmanva Barsag‘an nomlariga Barman va Barsag‘an shaharlarini, qizi Qazismiga Qazvin va Qumshaharlarini bunyod etilganligi, nihoyat, shu buyuk bahodirning o‘limi, mazkur voqeaning xalqiztiroblarini o‘zida aks ettirgan, ifoda etgan marsiyalarga aylanganligi inobatga olinsa, xalqimizning olistarixiga oid haqiqat yana-da, teranlashgan bo‘lur edi. Zotan, afsonalarda haqiqat yashaydi.Binobarin, hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari, Afg‘oniston, Sharqiy Turkiston va qisman Eron hududlari o‘zbek tilining tarixiy-madaniy areallari bo‘lib, tarixiy jihatdan o‘zbek ma‘naviy va moddiy madaniyatining obidalari ana shu hududlarda o‘zbeklar va ba‘zan turli til va

¹⁶Қаранг: Х. Бердиев ва Д. Ражабовларнинг «Девонилуғотиттурк»дагише‘рийпарчалардақофия». Монография. – Тошкент, 2004.





madaniyatga mansub bo‘lmish shaxslar tarafidan yaratilgan edi. Bu hol o‘zbek tili tarixiga oid qomusiy va filologik lug‘atlar hamda ularda izohlangan leksema (so‘z) va frazeologik birliklarning ma’no-mazmunida ma’lum ma’no farqliliklarining vujudga kelishiga yo‘l ochadi. Qolaversa, tilda va uning sathlarida yuz beradigan neologizatsiya, arxaizatsiya, so‘z o‘zlashtirish, til birliklarining aktualizatsiyasi va deaktualizatsiyasi, leksikadagi periferial so‘zlarning faollashishi kabi tabiiy jarayonlar “kechagi” so‘zning ma’nolarini “bugungi” til jamoasi tomonidan boshqacha talqin va qabul qilinishiga yo‘l ochadi¹⁷.

¹⁷Gerashenko B.M., Shipitsina G.M. Leksikograficheskoe otrajenie dinamicheskix protsessov v leksike russkogo yazika // Nauchnie vedomosti. Seriya Gumanitarnie nauki. 2010. № 18 (89). Vipusk 7. –S.21-30

